

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA METONIMIYA HODISASI VA UNING O'RGANILISHI

G'ayratova Gulzoda San'at qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistri

ANNOTATSIYA: Ko'chimlar deyilganda «adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliliginini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatalishni» nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Ko'chimlar deyarli ko'pchilik adabiyotlarda «troplar» atamasi ostida o'rganilgan. Biz ushbu maqolada ko'chimlardan metonimiya hodisasi alohida o'rganilgan.

KALIT SO'ZLAR: E.Qilichev, ko'chimlar, lingvistik tahlili, lingvopoetik tahlil, metonimiya.

«Badiiy tekstning lingvistik tahlili» qo'llanmasida ko'chimlar quyidagicha tasnif qilingan: «1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozi, 2. So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya.» qolgan tasviriy vositalar mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi: «simvol, jonlantirish, epitet – apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota meyoziining ko'rinishlaridir». Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga tartganda ko'chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmaslik kerak.

Metonimiya deb voqe-a-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytildi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat «metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan birbiriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi».

Masalan:...yaxshiliqmi, yomonliqmi haytovur bo'ladirgan ko'ngilsiz gapni kechikkani yaxshi.... Fuzuliyni yaxshilab o'qish kerak. (A.Qodiri) Ushbu gapda muallif va uning asarlari o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanib, «asar» muallif nomi bilan qayta nomlanyapti. Yoki; Saroy tinch uyquda, tun yarim (A.Qodiri). Bu misolda «saroy» so'zi orqali «saroydag'i odamlar» ma'nesi ham ifodalangan. Metonimiyaning turli ko'rinishlari mavjud va bu haqda tilshunoslikka oid adabiyotlardan atroflicha ma'lumot olish mumkin. Biz sizga bir mansurani havola qilmoqchimiz. Unda muallifning metonimik qayta nomlash usulidan mahorat bilan foydalanganiga o'zingiz guvoh bo'lasiz.

Metonimiya hodisasi ko'pgina olimlar tomonida o'rganilgan va unga turli xil tasniflar berishgan. Masalan olim E.Qilichev o'zining “Badiiy tasvirning leksik vositalari” kitobida metonimiyyaga quyidagicha ta'rif bergan. Metonimiya polisemianing bir ko'rinishidir. Predemet yoki hodisalarni anglatuvchi so'zlar metonimiya yo'li bilan yangi ko'chma ma'no

anglatar ekan, bunda bir- biridan tubdan farq qiluvchi va butunlay boshqa-boshqa tushunchalarni ifodalovchi predmet-narsa va hodisalarning makon yoki zamonda o‘zaro ichki va tashqi jihatdan yaqinligi, bog‘liqligi, aloqadorligi ko‘zda tutiladi. Ya’ni predmet yoki hodisalarni makon yoki zamondagi o‘zaro doimiy bog‘lanishlari asosida birining nomi ikkinchisiga ko‘chiriladi. Masalan ”kent ko‘chdi“ birikmasidagi ”kent“ so‘zi ko‘chma ma’noda ”odamlar“ ”kishilar“ ma’nosini ifodalaydi. Bunda ikki voqealik orasida o‘zaro o‘rin munosabatiga ko‘ra yaqinlik, aloqadorlik, bog‘liqlilik ifodalanoqda, ya’ni shu joyda o‘rnashgan, joylashgan odamlar, kishilar ko‘chdi ma’nosidir. Shuningdek avtor nomi asarlari o‘nida qo‘llanilishi mumkin, bunda keng kitobxonlar orasida tanilgan mashhur yozuvchi yoki shoirlarning asrlari haqida gap boradi. Chunki bir yozuvchi barcha asarlarining nomini sanamay, nutqda ixchamlikda erishish va fikrni qisqa bayon qilish uchun shu yozuvchining nomi ishlatilaveradi. So‘zlardagi metonomik ma’no ko‘chirilishining bu turi S.Ayniyning asarida uchraydi: Men bibixalifa (qizlar maktabi)da Xofiz, Bedildan bir necha qism o‘qidim. Misolidagi ”Xofiz“, ”Bedil“ so‘zлari ularning kitobi (she’rlari) ma’nosini ifodalamoqda. Shu konteksdagi ”Bibixalifa“ so‘zi va undan keyingi qavs ichida keltirilgan ”qizlar maktabi“ birikmasi kishilar diqqatini tortadi. Qadimda ”bibixalifalar“ deyilganda ”qizlar o‘qiydigan mакtab“ tushunilgani yozuvchi bir shtrix bilan izohlab kelgan, buni yozuvchining ma’nosini metonimiya yo‘li bilan ko‘chgan, tushunilishi qiyin bo‘lgan istorizm so‘zлari asar kontekstida izohlab ketish mahorati deb bilmоq kerak. Metonomik ma’no ko‘chirish usullari xilma –xil bo‘lib, biror bir asarning janri o‘rnida uning nomi ishlatilishi ham mumkin.

So‘zlarning metonomik ko‘chma ma’noda qo‘llash, ulardagi semantik strukturani o‘zgartirish orqali kitobxonga estetik ta’sir qilish bayonining emotSIONalligini oshirish ko‘zda tutiladi. Bu holatda ham tilning estetik funksiyasi uni kommunikativ funksiyasi bilan dialektik birlikda olib boriladi.

Har bir brigada o‘ziga topshirilgan qit’ani mehr bilan ishlaromoqda edi. Misoldagi ”brigada“ so‘zi ”brigadada ishlovchi kishilar, a’zolar, ma’nosida ishlatilgan bo‘lib, kitobxonlarga qisqa, ya’ni bir so‘z orqali keng tushunchani ifodalab, estetik ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, kitobxon, hech shubhasiz, bu so‘zlarning ma’nosini anglab yetadi. Yuqorida qayd qilinganidek, nutqini obrazli qilish, ixchamlash zaruriyati bilan metonomik ma’no ishlatiladi. Bunda so‘zning dastlabki nominativ funksiyasi yo‘qolib, semantik siljish yuz beradi. Metonomik ma’no ko‘chirishda fikrni lo‘nda qilib berish bilan birga, avtorning emotsiya va to‘lqinlarini voqealikka munosabatini ifodalash ham ko‘zda tutiladi: bular topgan pul va molning bir qismi hamma kattalar cho‘ntagiga tushadi. Misoldagi ”kattalar“ amaldorlar, yuqori mansabdagi kishilar ma’nosini qo‘llanilgan. Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ”katta“ sifatining uning ifodalagan ko‘chma ma’no bilan o‘xshashlik belgisi yo‘q. Ammo nutqdagi ”kattalar“ deganda mansabdor shaxslar bevosita anglashaveradi. Metonimiya badiiy adabiyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan badiiy vosita.

Foydanalingan adabiyotlar:

- 1.Mirtojiyev M. ”O‘zbek tilida polisimiya“. T: Fan 51-75 betlar.
- 2.Musayev Q. ”Tarjima nazariyasi asoslari“ Toshkent-2005 14-16-b
- 3.Nurmanov A., ”O‘zbek tilshunosligi tarixi“. Toshkent., 2002, 213-215-b
- 4.Qo‘ng‘irov R. va boshqalar. ”Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari“. 102-b.
- 5.Qo‘ng‘irov R. ”O‘zbek tilining ta’sviri vositalari“. Toshkent. ”Fan“. 1977 yil 13- b
- 6.Salomov G. ”Tarjima nazariyasiga kirish“T., 1978

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUL, 2024

- 7.Sattorova Z. “Tarjima va xalqaro adabiy jarayon”. “Tarjima san’ati”, 6-kitob..Toshkent.1985
- 8.Suvonova R, O‘zbek tilida metonimiya. Toshkent, 2003 y.
- 9.Tursunov U, Muxtorov J, Raxmatullayev Sh. “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili “..Toshkent. 1965 121- b